

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNI KASB TANLASHGA O'RGATISHNING SHAKL VA  
METODLARI**

Usanov Mehriddin Mustafayevich

Jizzax politexnika instituti Oliy matematika kafedrasи mudiri PhD., dotsent

Joniqulova Zulayxo Burxon qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:**

Zamonaviy jamiyatda ta'limdi isloh qilishning yangi yo'naliшlarini topishning dolzarbligi oshdi. Bugungi kun maktabi hozir va kelajakda o'quvchining moyilligini va qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantirish va amalga oshirish uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratish, ya'ni "o'quvchiga yuzlanish" ga intilayapti. Ushbu ishda boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasb tanlashga o'rgatishning shakl va metodlari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, o'quvchi, kasb tanlash, texnologiya fani, bilim, ko'nikma, malaka, Evristik pedagogik texnologiyalar.

O'qituvchilarning ongi va ularning amaliy ishlarida texnologiyalarning yaxlit ko'rinishi yo'q, ularning tasavvuri texnologik usullarning katta qismini qamrab ololmaydi. Alovida o'qituvchi yoki ayrim o'qituvchilar tomonidan texnologiyalar o'zlashtirilishiga qaramasdan, o'quvchilar shaxsini rivojlantirish va natijalarga erishish borasida ulardan yaxlit foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinmagan. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari amaliy faoliyatida bir qator texnologiyalarni o'xshashlik va bir-birini to'ldirish prinsipiiga asoslangan holda yagona kompleksga birlashtirish masalasi o'rganilmay hamda amalga oshirilmay qolmoqda.

Shu munosabat bilan boshlang'ich sinf o'quvchilariga texnologiya fanini o'qitish metodlarining umume'tirof etilgan yagona tizimi mavjud emasligi, olimlar tomonidan metodlar tasnifini yaratishda turli g'oyalar va yondashuvlardan foydalanilganligi e'tiborga olinishi lozim.

Pedagogik texnologiyalardan foydalanishga kompleks yondashuv umumiy o'rta ta'limning maqsadlarini amalga oshirish va uning sifatini ko'tarish uchun yaxlit o'quv jarayonini tashkil etishni tizimlashtirishga imkon beradi. Kompleks yondashuv zamonaviy insonparvarlik shaxsga yo'naltirilgan paradigmaiga mos keladi, bu esa an'anaviy ta'lidan keskin farq qiladi. Shu bilan birga, o'quv jarayoni yanada yuqori darajaga ko'taradi, chunki murakkablik o'z salohiyatini ochib, mavjud qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish orqali shaxsni o'zini-o'zi anglash uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga yordam beradi.

O'qituvchilar o'quv jarayonini tashkillashtirish va loyihalashtirish uchun eng maqbul ta'lim usul va texnologiyalarini tanlash imkoniyatiga ega.

Bugungi kunda ko'plab ta'lim texnologiyalari ishlab chiqilgan bo'lib, ular innovatsiyalarni nazariy umumlashtirish, tahlil qilish va tasniflash, optimal tanlash imkonini beradi.

Ta'lim texnologiyasini yoki texnologik kompleksni tanlash pedagogik faoliyatning eng muhim va eng qiyin elementlaridan biridir.

Kompleks innovatsion tizim uchun texnologiyalarni tanlash parametrlar bo'yicha amalga oshirildi:

- "Texnologiya" darslarini o'ziga xos xususiyatlariga muvofiqligi (ilmiy asos, texnik va texnologiyalarga, turli xil kasblarga bog'liqligi);

- zamonaviy, shaxsga yo'naltirilgan, tadqiqot, interfaol, individual va ijodiy yondashuvlarning texnologiya tarkibidaligi;

- darslarda o'quv turkumining murakkabligi-muammolar, motivatsion usullar, mavjudlik, vazifalar va tavsiyalarning tafsilotlari, nazorat parametrlarining mavjudligi.

Biz ushbu yondashuvlarga mos keladigan texnologiyalarni tanladik va shartli ravishda ikki turga bo'lingan - faoliyat texnologiyalari (izlanuvchan va rivojlanuvchi)- evristik, muammoli ta'lif, izlanish faoliyati, tanqidiy fikrlash texnologiyasi, MTK texnologiyasi (mantiqiy tayanch konspektlari) va shaxsga yo'naltirilgan - loyihiaviy, adaptiv texnologiya, turli darajadagi (differensial) ta'lif texnologiyasi, paratsentrik texnologiya, o'quv ishlarini qabul qilish texnologiyasi.

Bunday tanloving muhim omillaridan biri ushbu texnologiyalarning bosqichi, o'quv jarayonlarini algoritmlash, turli darajadagi differensiatsiya, o'zgaruvchanlik va yondashuvlarning o'ziga xosligini ta'minlaydigan vazifalarni guruhash va shuning uchun o'quvchilarining ta'lif qobiliyatlari, aql-zakovati va ijodiy qobiliyatlarini yanada jadal rivojlantirish asosida o'xshashligi edi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, texnologiyalarning innovatsion majmuasi (kompleksi) va unga aloqador ta'lif shakllari optimal ta'lif natija-lariga erishish uchun pedagogik jarayonni qayta qurish taktikasini belgilovchi umumiyy nazariy model sifatida ko'rib chiqilishi mumkin.

Shunday qilib, texnologik majmua o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. O'qituvchining turli xil ta'lif texnologiyalarining o'ziga xos xususiyatlarini bilishi, ularni yetarli darajada qo'llash, mavjud omillar va sharoitlarga mos keladigan, umumiyy o'rta ta'lif mакtablarida ta'lif jarayonini sifatli tashkil etish imkonini beradi.

Umumta'lif mакtablarida "Texnologiya" darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kasb tanlashga o'rganishini shakllantirishning tashkiliy-funksional modelini ishlab chiqdik (1 - rasm).


Ushbu modeldan kelib chiqib, biz quyida tashkiliy-funksional modelni texnologiya darslarida qo'llanilishini keltirib o'tamiz.

### **To'garak mashg'ulotlarida:**

Texnologiyadan to'garak mashg'ulotlarida evristik ta'lif texnologiyalaridan foydalanib o'vuchilarini kasb tanlashga o'rgatish hamda intellektual ko'nikmalarini shakllantirish amalga oshiriladi.

To'garak mavzusi: Mening kelajakdag'i kasbim.

To'garakda foydalaniladigan texnologiya: evristik ta'lif texnologiyasi.



### 1-rasm. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kasb tanlashga o'rgatishning tashkiliy-funksional tuzilmasi

Evristik pedagogik texnologiyalar mahsuldor xarakterdagи faoliyatni tashkil etish, o'qitishning muammoli-rivojlanantiruvchi metodlari tizimidan foydalanish, qaror qabul qilish, ijodkorlikni yuzaga chiqarishda mustaqillikni talab qiluvchi yangi faoliyat turlarini izlashga qaratilgan vazifalardan foydalanishni nazarda tutadi. Bunda ta'limning tashkiliy shakllari sifatida: kombinatsion dars, dars-konferensiya, ijodiy ish, tanlov ishlari hisoblanadi. O'qitish metodlari sifatida: ijodiy fikrlashni rivojlanantiruvchi metodlari, muammolarni hal qilishda axborotni izlash vazifalari, maqsadlarga erishish yo'llarini mustaqil izlash, yangi, noan'anaviy vaziyatlarda bilim va ko'nikmalarni qo'llash bo'yicha vazifalar hisoblanadi.

Evristik pedagogik texnologiyalarni qo'llashda o'quvchilar kasbiy va shaxsiy malakalarni shakllantiradilar, masalan: muvozanat, stressga chidamlilik, o'z-o'zini anglesh motivatsiyasi, ijodkorlik, kreativlik. Ushbu ta'lim usuli ko'pincha yangi materialni tushuntirishda qo'llaniladi.

Evristik texnologiya odatda algoritmga muvofiq qo'llaniladi. Tushuntirish yoki suhbat davomida o'quvchilarga savollar berish – ularni materialni to'g'ri tushunishga yo'llash – tushunchalar,

koncepsiylar, qonunlar, xulosalar va boshqalarni mustaqil o'rganishni shakllantirish. Biroq, har qanday mavzuni o'rganishda yaxlit samarali usul –“evristik darslar” o'tkazish yanada mahsuldor sanaladi.

O'qitishning evristik modeli. “Evristika” yunon tilidan tarjima qilinganda “topish”, “kashf qilish” degan ma'noni anglatadi. Evristik tizim ta'limoti Sokrat tomonidan keng qo'llanilgan. Olim maxsus savollar va mulohaza yuritish orqali suhbatdoshga mustaqil ravishda muammo yechimini topishga yordam beradi. Bunda haqiqat faqat o'quvchigagina emas, balki o'qituvchining o'ziga ham masalani yechishga yordam beradi.

Umumiy ma'noda evristika - bu ijodkorlik fani, odamlarning ijodiy faoliyati, uning maqsadi sifat jihatidan yangi natijalarga erishishdir. Evristika kibernetika, psixologiya, sud tibbiyoti va boshqa sohalarda ham qo'llaniladi. Bizda to'garak mashg'ulotlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini texnologiya darslarida kasb tanlash faoliyatini rivojlantirishda qo'llash mumkin.

Evristik ta'lim muammoli ta'limdan farq qiladi. Muammoga asoslangan ta'limning maqsadi – o'quvchilarning berilgan fan materialini o'qituvchi tomonidan berilgan vazifa – muammolarning yechimi orqali o'zlashtirishdir. Muammoga asoslangan ta'lim metodi o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni ma'lum masalaning yechimiga yo'naltirishiga asoslangan. Ta'limga bo'lgan evristik yondashuv, muammoli ta'limning imkoniyatlarini kengaytirishga asoslangan, chunki u o'qituvchi va o'quvchini ilgari ko'zlangan noma'lum natijaga erishishga yo'naltiradi.

O'qitishning asosiy natijalari ularga tashqi tomondan uzatilmaydi, ular go'yo o'quvchilarning individual qobiliyatlariga muvofiq ichki tomonдан ko'rsatiladi.

Evristik ta'limning maqsadi o'zgacha bo'lib, ta'lim ishtirokchilari – o'quvchilarning individual imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, ta'lim yo'naltiruvchilari - o'qituvchilarning esa ta'lim mahsulotini yaratishga qaratilgan faoliyatidir.

Asosiy farq – evristik ta'limda o'quv faoliyatini o'rganish obekti bo'lib faqatgina muammo va masalalar emas, balki o'quvchilarning o'zlari, ularning individual shaxsiy salohiyati, kreativ, kognitiv, refleksiv va boshqa amaliy va faoliyat turlari sanaladi. Evristik ta'lim nafaqat o'quvchilarni, balki ko'pincha ilmni (haqiqatni) “bilmaslik” vaziyatidagi o'quv jarayonini tashkil qilayotgan o'qituvchilarning ham kasbiy tayyorgarligini rivojlanishiga olib keladi.

Evristik ta'lim rivojlantiruvchi ta'limidan ham farq qiladi (V.V.Davidov, L.V.Zankov), chunki u sifat jihatidan yangi vazifani belgilaydi va hal etadi, ya'ni: nafaqat o'quvchining, balki ta'lim harakati troyektoriyasi tarkibiga kiruvchi uning rivojlanish maqsadlari, texnologiyalari va ta'lim mazmunini rivojlantiradi.

Natija - ijodkorlik, individual qobiliyatlarni, mustaqil faoliyatni yuzaga chiqarishdir.

Ta'lim jarayonida evristik pedagogik texnologiyadan samarali foydalanish o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini hamda mustaqil ravishda kasb tanlashga o'rganishlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Texnologiya darslarida ekskursiya:

Texnologiya darslarida boo'lang'ich sinf o'quvchilarini turli xil professional ta'lim muassasalariga turli xil kasblar bo'yicha bilim va ko'nikmalarini shakllantirish uchun ekskursiyalar tashkil qilinadi. Ekskursiyada tanqidiy fikrlash texnologiyasidan foydalanib refleksiv ravishda kasb tanlashga o'rganishi shakllantiriladi. Ekskursiyalar odatda sinfdan tashqari mashg'ulot bo'lib, professional ta'lim muassasalarida, turli xil ustaxonalar, kasb maktablarida ham o'tkazilishi mumkin.

Tanqidiy fikrlash texnologiyasi – tanqidiy tafakkurni o'rgatish muammolarni muhokama qilish, baholash, aniqlash va hal qilishni o'rgatadigan ta'lim texnologiyasidir.

**Texnologiyadan kombinatsion dars:**

Texnologiyadan kombinatsion darsda loyihalash texnologiyasini qo'llash orqali o'quvchilarning o'z-o'zini o'qitish, kelajakdagi kasbini tanlash ko'nikmalarini shakllantirish amalga oshiriladi. Texnologiyadan kombinatsion dars Nazariy, amaliy, laboratoriya, to'garak kabi ta'lif shakllarining barchasini birdek loyihalash texnologiyasidan foydalanib olib borilishidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Mustafayevich U. M. Educational Aspects of using Cloud-Based Network Services in Training Future Engineers //Spanish Journal of Innovation and Integrity. – 2022. – Т. 2. – С. 13-19.
2. Усанов М. М. Современная Информационно-Образовательная Среда Как Основа Модернизации Системы Образования //Global Science and Innovations: Central Asia (см. в книгах). – 2021. – Т. 4. – №. 1. – С. 61-65.
3. Мустафаевич У. М. ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ //Web of Scientist: Международный научный исследовательский журнал. – 2022. – Т. 3. – С. 199-203.
4. Usanov M. M. Opportunities Use Of Cloud Technologies In The Educational Process //Electronic Journal Of Actual Problems Of Modern Science, Education And Training-2020.
5. Mustafayevich U. M. Innovative technologies as a factor of development professional competence students //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 7. – С. 199-203.
6. Усанов М. М. Таълимдаги булатли технологиялар //НамДУ илмий ахборотномаси-Научный вестник-НамГУ. – 2020.
7. Mustafayevich U. M. Using of Cloud Technologies in the Process of Preparing Future Specialists for Professional Activity //International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD)-2020
8. Joniqulova Z.B. About Sending Young People From School To Choose A Career. Международный научно - образовательный электронный журнал «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ». Выпуск №25 (том 5) (апрель, 2022). Дата выхода в свет: 30.04.2022